Talabalar o‘rtasida “Asardan iqtibos” tanlovini o‘tkazish to‘g‘risidagi

NIZOM

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur tanlov O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 15-yanvardagi **“Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va aholi o‘rtasida kitob o‘qishga qiziqishni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi** PQ-9-son qarori ijrosini ta’minlash, universitet talabalari o‘rtasida kitobxonlik va mutolaa madaniyatini keng targ‘ib etish, yoshlarning kitobga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirish, targ‘ibot-tashviqot ishlarini samarali va tizimli tashkil etish, ularni rag‘batlantirish maqsadida o‘tkaziladi.

2. **“Asardan iqtibos”** tanlovida universitetning bakalavr ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar ishtirok etadi.

3. Tanlovda talaba-yoshlarning keng qamrovli ishtiroki, universitet yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori, fakultet dekani o‘rinbosarlari hamda guruh murabbiylari (tyutorlar) tomonidan ta’minlanadi va muvofiqlashtiriladi.

II. Tanlovning maqsadi va vazifalari

4. Tanlovning asosiy maqsadi talabalar o‘rtasida badiiy asarlarning hayotimizdagi o‘rni va ahamiyatini targ‘ib qilish, yoshlarimizni har tomonlama sog‘lom, barkamol etib tarbiyalash, ularning kitobdan foydalanishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, mustaqil va erkin fikrga ega, iste’dodli yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

5. Tanlovning vazifalari quyidagilardan iborat:

- mamlakatimizda kitobxonlikni keng targ‘ib etish, badiiy asarlarni yaratish va qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlarni hamda jamiyatimizda yuksak ma’naviyatni shakllantirish va mustahkamlashda badiiy asarlarning ahamiyatini yoshlar ongiga singdirish;

- yoshlar o‘rtasida kitobxonlik harakati targ‘iboti va ta’sirchanligini yanada kuchaytirish;

- iste’dodli va iqtidorli talabalarni rag‘batlantirish;

- yoshlarning kitob mutolaasidan unumli foydalanishini ta’minlash;

- kitob targ‘iboti orqali yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy hamda ijodiy ishlardagi faolligini yanada oshirish.

III. Tanlovni o‘tkazish tartibi va shartlari

6. Universitet talabalari o‘rtasida **“Asarlardan iqtibos”** tanlovini o‘tkazish bo‘yicha prorektorlar, bo‘lim boshliqlari va boshqa mutaxassislardan iborat hakamlar hay’ati tuziladi.

7. Tanlov ishtirokchisi o‘zi o‘qigan badiiy asardagi aforizmlar, hikmatli so‘zlar, chiroyli tashbehlarni to‘plab, eng yaxshilarini universitetning ijtimoiy tarmoqlarida e’lon qildiradi. Iqtiboslar **@abdurazzoq1975** profiliga ishtirokchining o‘zi va o‘qigan badiiy asari haqida qisqacha ma’lumot (annotatsiya) bilan yuboriladi.

8. Iqtiboslar soni **10 tadan kam bo‘lmasligi**, teran mazmunga ega bo‘lishi, yoshlarni fikr yuritishga undashi, ezgulikka xizmat qilishi lozim.

9. Iqtiboslar internet sahifalaridan va sun’iy intellekt ma’lumotlaridan olingan bo‘lmasligi lozim. Buning uchun o‘qilgan kitobning muqovasi, qalam bilan belgilangan har bir iqtibos joylashgan sahifaning fotonusxasi taqdim etiladi. Agar ishtirokchining ushbu nizom talablarini buzganligi aniqlansa, uning barcha natijalari bekor qilinadi va tanlovdan chetlatiladi.

IV. Tanlov shartlarini baholash mezonlari

10. Tanlov shartlari **jami 100 ballik** shkalada baholanadi.

11. Hakamlar hay’ati tomonidan:

ishtirokchi tomonidan keltirilgan iqtiboslar soni va mazmuniga ko‘ra – **60 ballgacha**.

Ijtimoiy tarmoqlar (universitetning Telegram, Facebook, Instagram sahifalari)dagi postlarga bildirilgan munosabatlar (layklar) soni, kuzatuvchilar tomonidan yozilgan izohlar soni va mazmuni hamda umumiy faollik ko‘rsatkichlari bo‘yicha – **40 ballgacha** baholanadi.

G‘oliblar ushbu ikki yo‘nalish bo‘yicha to‘plagan ballarining umumiy natijasiga ko‘ra aniqlanadi.

V. Tanlovni tashkil etish va o‘tkazish tartibi

12. Tanlov 2026-yil **1-fevraldan** boshlanadi. Har oy yakuni bo‘yicha dastlabki uch o‘rin egalari aniqlanadi. Shuningdek, yil oxirida eng yuqori natija ko‘rsatgan 3 nafar talaba g‘olib sifatida e’tirof etiladi.

13. Agar g‘oliblarning natijalari bir xil bo‘lsa, pulli “layk”lari soni ko‘p bo‘lgan ishtirokchilarga ustuvorlik beriladi.

14. Tanlovning yana **3 nafar** ishtirokchisi **faol qatnashchi** sifatida rag‘batlantiriladi.

VI. Tanlov g‘oliblarini taqdirlash

15. G‘oliblar har oy yakunida quyidagi tartibda rag‘batlantiriladi:

1-o‘rin: bazaviy stipendiya miqdorining **3 baravari** miqdorida.

2-o‘rin: bazaviy stipendiya miqdorining **2 baravari** miqdorida.

3-o‘rin: bazaviy stipendiya miqdorining **1 baravari** miqdorida.

G‘oliblar va faol ishtirokchilar yil yakunida faxriy yorliq hamda maxsus sovg‘alar bilan taqdirlanadilar.

VII. Yakuniy qoidalar

16. Tanlovning ishchi tili – davlat tili.

17. Tanlov natijalari ijtimoiy tarmoqlarda va rasmiy veb-saytlarda e’lon qilib boriladi.

18. Tanlov ishtirokchisi (boshqa shaxs) tomonidan tanlovning yakuniy bosqichini tashkil etish va o‘tkazish, shuningdek, uning natijasi bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha murojaati bir ish kunida ko‘rib chiqiladi.